# 2-bosqich 1-semestr.
# 3-mavzu: Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asari




Adabiyot

Abdukadirova M. M.

# Reja:

1.Mahmud Qoshg‘ariy haqida ma’lumot.

2.“Devon-u lug‘otit turk” asarining yaratilishi.

3.“Devon”da qo‘llangan janrlar haqida.

4. Asardagi mehnat va marosim qo‘shiqlari.

5. Alp Er To‘nga marsiyasi.



**MAXMUD QOSHG`ARIY**

O'zbek tilini rivojlantirishda jahonga mashhur vatandoshimiz, buyuk alloma Maxmud Qoshg`ariyning o`rni beqiyosdir. O`zbek xalqi va tili haqidagi mashhur asarlardan biri bu til bilimining donishmandi Mahmud Qoshg`ariyning turkiy tillar olamida eng sara asarlari bo`lmish "Javohurun nag`hv fi lug`ati turk" ("Turkiy tillarning sintaksisi durdonalari") va «Devonu lug`otit turk» asarlaridir.

"Devonu lug`otit turk" asarida turkiy xalqlar og`zaki ijodi va yozma adabiyotiga doir 300 dan ziyod she'riy parchalar, maqollar, hikmatli so`zlar va lavhalar berilgan.

ACADEMIC IHT LYCEUM

TIIAME

# Turkiy yozma adabiyot.

X–XII asrlarda Movarounnahr va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelayotgan og‘zaki adabiyoti bilan bir qatorda, yozma adabiyot yuzaga keladi.



ARXIV.UZ


Mahmud Koshg'ariy
"Devon-u
lug'otit turk"

# Olim hayoti

**Mahmud Koshg'ariy** XI asrda turkiy Qoraxoniylar davrida yashab, ijod qildi. U buyuk Sharq mutafakkiri, o'z ijodi bilan ijtimoiy falsafa, tilshunoslik, mantiq, adabiyotshunoslik, she'riyat, ijtimoiy lingvistika, tabiatshunoslik rivojiga ulkan hissa qo'shgan, boy merosi jahon fani taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan, turkiy til grammatikasini birinchi bo'lib ishlab chiqqan tilshunos-olimdir.

Olim taxminan 1028-yilda (yoki 1029) Bolosog'un shahrida dunyoga kelgan. Uning to'liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammaddir.

محمود ابن حسين ابن محمد الكاشغري

Buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning "Devon-u lug‘otit turk"dagi asari Qoraxoniylar davrining noyob durdonasi hisoblanadi. U o‘lmas obida sirasiga kiradi va o‘zida davr tili, adabiyoti, tibbiyoti, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, hunarmandchiligi va astronomiyasi xaqidagi bilimlarni qamrab olgan. Qadimiy turkiy she'riyatda tilga olingan ushbu muammo – bilim va boylikning bir-biriga zidligi to‘g‘risidagi tushuncha o‘sha davr uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu masala sharhi o‘rta asrlardagi ko‘plab shoirlar, olimlar, mutafakkirlar merosida uchraydi.

Ayni paytda u turkiy til va adabiyotining asoschisi - Mahmud Qoshg‘ariy asarlarida alohida o‘rin egallaydi.



1072 йилнинг 25 январида
Маҳмуд Кошғарий
"Девону луғотит турк"ни ёза бошлади

# Mahmud Koshg‘ariy

Turkcha-arabcha lug‘at tuzgan

Turkiy til gramma-tikasini ishlab chiqqan

“Devon-u lug‘otit turk” qomusiy asar

Qomusiy olim

Bolosog‘unda tug‘ilgan




Devonu lug‘otit turk»-adabiy manba. Unda turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, 700 satrdan oshiq she'riy parchalar o‘rin olgan. «Devon»da keltirilgan she'riy parchalardan 150 satrga yaqini islom davri she'riyatiga xos bo‘lgan «bayt» tipidagi masnaviy, qasida, g'azal, qit'a parchalari bo‘lib, muallif ularni «bayt» deb ataydi.«Devon»dagi qo‘shiqlar ko‘proq jangnoma xarakterida bo‘lib, ba'zi yirik she'riy parchalarga shartli ravishda «Tangutlar bilan jangnoma», «Uyg'urlar bilan jangnoma», «Yabaku bilan jangnoma» deb nom qo‘yilgan.




Kitobda sanab o‘tilgan **20** qabila bu bosh turkiy qavmlar nomi xolos. Ularning har biri, o‘z navbatida, mayda bo‘laklarga bo‘linadi. Masalan, muallif o‘g‘uz turkmanlarning **22** qismga bo‘linishini aytib, har birining nomini keltiradi. Asar birgina tilshunoslik, etnografiya emas, tarix, geografiya, folklor va adabiyotshunoslik, hatto tibbiyot kabi bir qator fanlar nuqtayi nazaridan ham qimmatli ma'lumotlar bera oladi. Masalan, Koshg'ariy buquq (bo‘qoq) so‘zini izohlar ekan, uning kasallik sifatidagi ta’rifini beradi, tarqalish doirasini belgilaydi, patalogiyasini tasvirlaydi, naslga o‘tishiga diqqatni qaratadi.

# Osiyoning eng qadimiy xaritasi



"Devon-u lug'otit turk"dagi geografiyaga oid ma'lumotlar g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Sababiki, asarida turkiy xalqlar joylashgan hududlar ta'rifini keltirgan va u muallif dunyodagi eng qadimiy turkiy xarita muallifi hisoblanadi. Ushbu xarita XI asrdagi Osiyoning eng qadimiy va ahamiyatli xaritasi bo'lib, unda geometrik aniq shakllarda tog'lar, ko'llar va daryolar ko'rsatilgan, eng muhim shaharlar va qabilalar qayd etilgan.




Marsiyada Afrosiyob-Alp Er Ton‘ganing achchiq qismati dahshatli fojia, o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan yo‘qotish sifatida baholanadi.

- Alp Er To‘nga o‘ldimu?
- Esiz ajun qaldimu?
- o‘dlak o‘chin aldimu?
- Emdi yurak yirtilur.
- Alp Er To‘nga xalq sevgan qahramon. Mana bu misralar motam marosimini eslatadi:
- Bo‘ri bo‘lib uldilar.
- Yoqa yirtib turdilar.
- Yig‘lab-siqtab yurdilar
- Ko‘z yoshlari mo‘l bo‘ldi.

“Devonu lug’atit-turk” 1928 yilda nemis olimi Brokelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan. 1939 yilda esa Bosim Atalay uni usmonli turk tiliga tarjima qilgan va mazkur tarjima Anqarada chop etilgan. O’zbekistonda asar Solih Muttalibov tomonidan tarjima qilinib, 1960-1963 yillarda uch jilddan iborat “Turkiy so’zlar lug’ati” nomi bilan nashr qilingan. 1967 yilda indeks lug’at ko’rsatkichi ham chop etilgan.

“Devonu lug’atit-turk” asarining she’riy parchalari ham nemis tiliga tarjima qilinib, 1914 yilda nashr etilgan.

ARXIV.UZ



# O‘quv topshirig‘i.
# “To‘g‘ri va noto‘g‘ri” mashqi.



Quyida berilgan ma’lumotlarni o‘qib, ma’ruzada tinglaganlaringizga asosan Tog‘ri (T) va Noto‘g‘ri (N) deb belgilab chiqing. Xato ma’lumotni tuzating.

1.Koshg‘ariyning to‘liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad.

2.Mahmudning ilk ustozlaridan biri Husayn xalifa Bolosog‘unlik edi

3.Mahmud Koshg‘ariy qomuschi olim va sayyohdir.

4.Koshg‘ariy forsiy til grammatikasini ishlab chiqqan 1-tilshunosdir.

5.“Devon-u lug‘otit turk” asaridagi ma’lumotlar X-XI asrlarga oid.

# Test topshiriqlarini yeching.

**1. Mahmud Koshg‘ariy qaysi shaharda tug‘ilgan?**

- A) Barskon b) Barsg‘an c) Bolosog‘un d) Koshg‘ar
- **2.Koshg‘ariy qaysi shaharlarda ta’lim olgan?**
- a) Buxoro, Marv b) Samarqand
- c) Bag‘dod, Nishopur d) barchasida
- **3.“Devon-u log‘otit-turk” asari qaysi yillarda yozilgan?**
- a)1072-1074-yillar c) 1064-1066-yillar
- b)1074-1076-yillar d) 472-474-yillar

**4.Asarda turk tili qaysi til bilan qiyoslanadi?**

A) fors tili b) o‘zbek tili c) arab tili d) tojik tili

**5.Asarda berilgan badiiy hodisalardan *kuy, maqom* ma’nosini bildirib she’rga nisbatan qo‘llangan atama qaysi?**

A) Saj’ b) rajaz c) yir d) qo‘shug‘

**6.Asarning tarixiy mavzularga bag‘ishlangan qismini aniqlang.**

A)Tangutlar bilan bo‘lgan jang haqida parcha c) “Oltin qon” rivoyat b) Alp Er To‘nga marsiyasi d) barchasi to‘g‘ri

TIIAME


TURK DUNYOSINING YAGONA XALQARO ADABIY TANLOVI
MAHMUD KOSHG'ARIY
NOMIDAGI
5-XALQARO HIKOYALAR TANLOVI
Mukofotlar:
O'zbekiston miqyosida g'oliblar uchun:
Birinchi o'ringa - 2500 Turk lirasi
Ikkinchi o'ringa - 1500 Turk lirasi
Uchinchi o'ringa - 1000 Turk lirasi
Xalqaro mukofotlar:
Birinchi o'ringa - 20000 Turk lirasi
Ikkinchi o'ringa - 15000 Turk lirasi
Uchinchi o'ringa - 10000 Turk lirasi
Rag'batlantiruvchi mukofot - 5000 Turk lirasi
Tanlovga hikoyalar 2018-yil 31-avgustga qadar qabul qilinadi.
Xalqaro taqdirlash marosimi 2018-yil dekabr oyida Anqara shahrida bo'lib o'tadi.
O'zbekiston
Turkiya
Ozarbayjon
Qozog'iston
Qirg'iziston
Turkmaniston
Boshqirdiston
Tatariston
Chuvashiston
Xakasiya
Yoqutiston
Oltoy
Tuva
Qrim
Gagauziya
Xitoy
Iroq
Eron
Gretsiya
Bolgariya
Kosovo
Kipr
Makedoniya
Ruminiya
TÜRKSOY



# Uyga vazifa.

“Devon-u lug‘otit turk”  asarini o‘qish.
Devon-u lug‘otit turk”- asarining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni haqida esse  yozish.